



## XALQ DEPUTATLARI KATTAQO‘RG‘ON TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 28-mart

VII-8-49-7-96-K/25

Kattaqo‘rg‘on tumani

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 28-martdagи “Islom taraqqiyot banki ishtirokida “Qishloq joylarni kompleks rivojlantirish”  
(2-bosqich) loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi  
PQ-141-sonli qaror ijrosi yuzasidan tumanda amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 28-martdagи “Islom taraqqiyot banki ishtirokida “Qishloq joylarni kompleks rivojlantirish” (2-bosqich) loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-141-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 16<sup>2</sup>- va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tuman Kengashi yettinchi chaqiriq, sakkizinch sessiyasi

### **QAROR QILADI:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 28-martdagи “Islom taraqqiyot banki ishtirokida “Qishloq joylarni kompleks rivojlantirish” (2-bosqich) loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-141-sonli qarori ijrosi yuzasidan tumanda amalga oshirilgan ishlar haqida tuman hokimining o‘rinbosari M.Rasulovning hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining o‘rinbosarlari N.Jo‘lmatov, M.Rasulov, aloqador tuman tashkilotlari bilan birgalikda loyiha doirasida:

-qishloq aholi punktlarining ijtimoiy-iqtisodiy holatini yaxshilash, hududlarni kompleks rivojlantirish, yo‘l-transport infratuzilmasi, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari va ijtimoiy soha obyektlarini barpo etish orqali aholining yashash sharoitlarini yaxshilash, ularning turmush darajasini yanada oshirish loyihani o‘z vaqtida amalga oshirish va muvofiqlashtirish;

-loyihani to‘la-to‘kis amalga oshirish uchun barcha zarur hujjatlar sifatli ishlab chiqilishini va loyihani amalga oshirish guruhiga o‘z vaqtida taqdim qilinishini belgilangan tartibda ta’minlash;

-qishloqlarni kompleks rivojlantirish uchun loyiha doirasida moliyalashtiriladigan obyektlardan tashqari amalga oshiriladigan chora-tadbirlarni bosh reja, hududlarni arxitektura-rejalashtirish jihatidan tashkil etish loyihalari va ular tarkibidagi batafsil rejalahtirish loyihalari asosida mahalliy budjet va qonunchilikda ta’qiqlanmagan boshqa mablag‘lar hisobiga amalga oshirish; qurilish-montaj ishlarini amalga oshirishda texnik

jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga rioya etilishi yuzasidan nazorat o'rnatish;

-loyiha doirasida ajratilgan mablag'larning maqsadli ishlatalishi jarayonida ochiqlik va oshkoraliytni ta'minlash ustidan doimiy nazorat o'rnatish; hududlarda amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida tegishli vazirliliklarga ma'lumot berib borish hamda qurilish-montaj ishlari ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatish choralarini ko'rish;

-amalga oshirilayotgan ishlarning sifatli bajarilishi ustidan monitoring qilib borish hamda natijasi yuzasidan har oyda bir marta tuman hokimligi yig'ilishida muhokama qilib borilishini ta'minlash vazifalari topshirilsin.

3. Xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budget, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (A.Xudoyberdiyev) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 28-martdag'i "Islom taraqqiyot banki ishtirokida "Qishloq joylarni kompleks rivojlantirish" (2-bosqich) loyihasini amalga oshirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ-141-sonli qarori ijrosini har chorakda doimiy komissiya yig'ilishida tanqidiy-tahliliy tarzda muhokama qilib borsin.

4. Mazkurqaror bajarilishini nazorat qilish va ijrosini ta'minlash Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budget, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (A.Xudayberdiyev), Agrar, suv xo'jaligi va ekologiya masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (M.Xolova) hamda tuman hokimining o'rribosarlari (N.Jo'lmatov, M.Rasulov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



NASRIDDINOV  
JAMSHID  
TULKNOVICH